



МУРАДДИМ

ХЭМ

ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

илимий-методикалық журнал № 6/2



**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
KONSTITUCIYASI KUNI BILAN!**

Нөкис - 2022



8 Декабр

***Ўзбекистон Республикаси
Конституцияси куни***

**2022-жыл ушын
«Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў»
журналына жазылыў баҳасы төмендегише:**

Индекс: 2092

**Жеке пухара ушын бир жылға 90 000 сум,
алты айға - 45000 сўм**

Индекс: 2093

**Көрханалар ушын бир жылға 110 000 сум,
алты айға - 55 000 сўм**

КК филиал УзНИИПН

р/с 20210000800538464001

КК.Отд. «ИПОТЕКА БАНК» г. Нукус

МФО 00621

ИНН: 200362233



Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш



ISSN 2181-7138

№ 6/2 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Аскарбай НИЯЗОВ
Азамат НОРБЕКОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қахқор ТУРСУНОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шўлкемлестиришчилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириш
Министрлиги, ӨЗПНИИ
Қарақалпақстан филиалы**

**Ўзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хэм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мэнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш» журналынан алынды, деп көрсетилуўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлўматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

Umarov I.A. “Малика айёр” дostonи лексикасида туркий қатламнинг қўлланиши	4
Шодиева Ш.И. Оламнинг лисоний манзараси ҳақида қарашлар	9
Haydarova Z. Satira nazariyasi haqida mulohazalar	14
Mamaraximova N. Ijodiy tafakkurda nutqning ahamiyati	16
Ergashev A. Xurshid Do’smuhammadning ramzga asoslangan hikoyalarni o’qitish metodlari	21

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yalubjanova D.,Maxmudov F. Diagnostikasi va reabilitatsiya qilishda eshitishida nuqsoni bo’lgan bola va ularning ota – onalari bilan bog’liq muammolar	25
Musurmonov R., Musurmonova M. Yangi o’zbekiston sharoitida ta’lim muassasasi rahbarining innovatsion faoliyati xususiyatlari	29
Мусурмонов Р., Султонова Д. Замонавий таълим муассасаси раҳбарининг инновацион фаолияти хусусиятлари	33
Мусурмонов Р., Суяров А. Таълим муассасалари раҳбарларининг маънавий кифаси, маданияти ва унга қўйилган талаблар хусусида	37
Мусурмонов Р., Хакимова И. Ёшларнинг шарқона имиджи ва муомала одобини шакллантириш хусусида	43
Турсунбаева Ю. Р. Олий таълим сифатини таъминлаш ва самарадорлигини оширишнинг замонавий имкониятлари	47
Расулов А. Н., Хуррамов К.М. Таълим кластери шароитида “Иқтисодий билим асослари” фанини ўқитишнинг ташкилий шароитлари	50
Агиров И. Ю. О’қувчиларни касбга yo’naltirishda pedagogik diagnostika	55
Азамов Ж. Олий таълим муассасалари бошқарувида Осиеча субстансиал ва процессуал автономия тамойилларини жорий этиш самарадорлиги	60
Ziyayev A. Seminar mashg’ulotlarini interfaol nashkil etishning afzallik jihatlarini	64
Arifxodjayev G., Yuldasheva O. Dizartiya nutq nuqsoni bo’lgan bolalarda idrok shakllanishining o’ziga xosligi	66
To’raqulov L. Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi	70
Томболтаев Ф. Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёрлаш тизимини такомиллаштиришнинг хусусиятлари	75
Akramova X., Safarov M. Yordamchi maktabda ta’lim jarayonini rivojlantirishni o’ziga xosligi	79
Nazarqosimov Q., Qarshiboyev A. Ko’rishida nuqsoni bo’lgan bolalarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda didaktik materiallarni qo’llanilish bo’yicha mashg’ulotlarning ahamiyati	83
Мустафақулова Д. Таълимда тизимли ёндашув	86
Mixliboyev F. Nutqning normal va nuqsонli rivojlanishida nutq va kognitiv funksiyalarning o’zaro bog’liqligi	91
Qaxharova N. N. Bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning tarixiy falsafiy asoslari	94
Abdullayeva G. R. Adekvatlik tushunchasining psixologik tahlili	98
Eshbekova G. X., Ximmataliyev D. O. O’zbekistondagi umumiy o’rta ta’lim maktablarida korrupsiya tarqalishining oldini olish chora – tadbirlarida maktab rahbarining ijtimoiy roli	103
Islamova M.Sh. The role of natural sciences in education of “divergent personnel”	106
Ганиева А.З. Мактабгача таълим ташкилотларининг бошқарув фаолиятини такомиллаштиришда хорижий тажрибалар	108
Химматалиев Д. О., Баратов Д. Талабаларни инновацион муҳандислик фаолиятига тайёрлашда креатив компетентлигини ривожлантириш	113
Мўминов М. А. Ҳарбий таълим муассасаларида тингловчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш	116

Қораев С. Б. Таълим муҳитини бошқаришда кластерли ёндашув	118
Мухамедова Г. Б. Олий таълим муассасалари битирувчиларининг хорижий тилларни ўрганишда креатив компетентлигини шакллантириш	120
Химматалиев Д. О., Исқандарова Г. П. Умумий ўрта таълим мактабларини креатив ёндашув асосида бошқариш	123
Хакимов Ж. О., Жалилов А. А. Профессинал таълимда замонавий инновацияларнинг мазмуни ва моҳияти	127
Хакимов Ж. О., Жалилов А. А. Ўқитишнинг интерфаол технологияларидан фойдаланиш – касбий билимларни ўзлаштиришнинг муҳим омили	131
Химматалиев Д. О., Хакимова М. Ў. Замонавий дарснинг дидактик хусусиятлари	134

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХАМ РУЎХИЙЛИК ТҲИКАРЛАРИ, ТАРИҲ, ФИЛОСОФИЯ

Rasulova D. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarning axloqiy mezonlari	139
Qilichova M. Yoshlar siyosiy qiyofasi to'g'risidagi qarashlarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati	141
Абдурасулова Д. Ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзининг амалда тадбиқ этилиши (Жиззах шаҳри мисолида)	147
Nazarqosimov Q., Berdiyev X. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda va korreksiyalashda logopedik yondoshuvlar	150
Raimjonov S. Yakka tartibdagi darslarda o'quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirish	152
Xolmirzayev O. O'zbek xalq cholg'usi chang tarixidan	156
Abdukurimova E. O'zbekistonda mumtoz musiqa san'atida bastakorlik ijodining tutgan o'rni va uning tadrijiy rivojlanishi	159

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Тайирова М. Та'лим jarayonlarida samarali tashkil qilishda ta'lim vositalari va multimedia texnologiyasidan foydalanishning dolzarbligi	165
Назарова Г. Бўлажак иктисодчиларда аналитик тафаккурни ривожлантиришнинг педагогик мазмуни	170

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Akramova X., Abatbayeva A. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar o'yin faoliyatida nutqiy muloqotning faolligini oshirish xususiyatlari	173
Arifxodjayev G., Muminova Z. Boshlang'ich sinflarda disleksiyasi bo'lgan o'quvchilarning o'qish malakalarini korreksiyalash	176
Nekboyev X., Kamalova D.T. Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'zaro integratsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	180
Сафаров Б. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларда педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар	188

ФИЗИКАЛИҚ ТӘРБИЯ ХАМ СПОРТ

Пармонов А. Жисмоний тарбия ўқитувчиларида акмеологик мотивацияни ривожлантириш модели	192
Абдуллаев О. Ўқувчилар руҳиятидаги салбий ўзгаришлар ва уни жисмоний таълимда бартараф этиш вазифалари	196
Nurmatov F.A. Milliy harakatli o'yinlar va uning rivojlanishi	200
Каримов У.Р. Решение некоторых ошибок и недостатков в физическом воспитании и в спорте вузов и всех образовательных учреждениях	203

ческие выводы В таких процессах качество образования может быть достигнуто только в том случае, если образование подрастающего поколения актуально для жизни.

SUMMARY

Today, the education of the world community needs to further expand the planned opportunities for the rational analysis of various situations, the development of solutions to complex situations, the development of problem situations and ways to overcome them. Therefore, today, the most important task for science, continuing education and society as a whole is to form an active, independent-minded, well-developed generation everywhere, to equip them not only with scientific achievements, but also with a high level of culture. Only then will the younger generation be able to think deeply and draw logical conclusions. In such processes, the quality of education can be achieved only if the education of the younger generation is relevant to life.

O'ZBEKISTONDAGI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KORRUPSIYA TARQALISHINING OLDINI OLISH CHORA – TADBIRLARIDA MAKTAB RAHBARINING IJTIMOYIY ROLI

Eshbekova G.X.

*Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi magistranti*

***Ilmiy rahbar: prof.**
Ximmataliyev D.O.*

Tayanch so'zlar: ta'lim-tarbiya, korrupsiya, innovatsion texnologiyalar, boshqaruv, modernizatsiya alashuv, outsourcing tizim, nepotizm, ta'lim standarti, shaffoflik.

Ключевые слова: образование, коррупция, инновационные технологии, управление, модернизация, система аутсорсинга, семейственность, образовательный стандарт, прозрачность.

Key words: education, corruption, innovative technologies, management, modernization, outsourcing system, nepotism, educational standard, transparency.

Bugungi kunda ushbu xavfni bartaraf etish uchun yetarli ishlar amalga oshirilganligini O'zbekiston respublikasi prezidentining korrupsiyaga qarshi farmonini (2020-yil, 29-iyun), korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilganligini, qonunchiligimizda esa ushbu ofatga qarshi kurashishi bo'yicha qarorlarini, respublikamiz bo'ylab olib borilayotgan poraxo'rlikka va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchiligiga asoslanib ish tutayotganligini ko'rishimiz mumkin. Butun O'zbekiston bo'ylab "Biz korrupsiyaga qarshimiz" deb nomlangan seminar va muhokamalarda korrupsiya mavzusining bugungi yangi uchinchi renessans rivojlanishida mamlakatimizda juda chuqur qamrab olinishi kerak bo'lgan mavzu ekanligini barchamizning ongimizga tushunarli tarzda yetkazilib kelinmoqda.

Asosan, ta'lim maskanlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan ma'ruzalarda yoshlar, maktab bolalariga korrupsiyaning jamiyatimizga katta xavf solinishini aniq va ravshan, tushunarli qilib olib borishi juda o'rinni bo'lgan. Sababi ma'ruzada ishtirok etgan barcha o'quvchi yoshlarda ushbu ofatning salbiy ta'sirlari jamiyatimiz taraqqiyotiga, nafaqat jamiyat taraqqiyotiga balkim har bir shaxsning jamiyatda ijtimoiy o'rini topishda to'sqinlik qilishini sekin astalik bilan anglab borishyapti.

Garchi ommaviy axborot vositalari va ilmiy izlanuvchilar turli xil korrupsiyaviy xolatlariga katta e'tibor berishsada, ta'limdagi korrupsion hatti-harakatlarni baholash yoki tahlil qilishga kam e'tibor qaratadilar. Negaki ta'lim sohasida ham ulkan o'zgarishlar avj olgan davrda albattaki o'quvchi yoshlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirdi, balkim o'qituvchilar

uchun ham taqdim etilayotgan turli imtiyozlar ular o'rtasidagi raqobatni kuchaytirdi. Bu esa ta'lim sohasida ham bunday vaziyatlar shakl-shubhasiz uchrashini bildiradi.

Maktab muhitida korrupsiyaning qanchalik avj olayotganini yoki uni qanday baholash va oldini olish kabi masalalar esa maktab rahbarining zimmasidagi ulkan javobgarlikdan bittasidir. Maktab rahbariga esa shunday bir yuksak talablar qo'yilgandiki, ya'ni rahbar xodimning boshqaruvchilik sifatlaridan kelib chiqib maktab xududida sodir bo'layotgan har qanday ishni xolisona baholay olishi lozim, shu bilan birga ulami bartaraf etish choratadbirlarini ham tadbir bilan reja qilishi butun jamiyatimizni taraqqiyot sari undaydigan yo'lni ochib beradi. Maktab rahbari korrupsiyani maktab xududida oldini olishi uchun uni yaxshi tushungan bo'lishi kerak. Maktab rahbari qachon maktab xududidagi muommoni to'liq o'rganar ekan shundagina u muommoni sababi, oqimi va uni oldini olishi mumkin. Maktab tizimidagi korrupsiyani turiga, sifatiga, va albattaki uning ishtirokchilarining kimligini aniqlaganidan keyin rejali yurish qila oladi. Aks xolda pala-partishlik bilan o'rganilgan muommoni hech qachon bartaraf eta olish mumkin emas. Shuni yana bir ta'kidlash joizki, rahbar xislatlaridagi oqillik va xaqiqatparvarlik fazilatlariga ega bo'lgan rahbargina buni uddasidan chiqishi aniq.

Korrupsiyaning oldini olishining eng birinchi amaliy usuli bu- maktab rahbarining xodimlarini tegishli ichki va tashqi korrupsiyaga qarshi qonunlar, qarorlar, mezonlar bilan birga turli tegishli ma'lumotlar bilan ham tanishtirishdir. Xuquqiy-ahloqiy munosabatni shakllantirish, ya'ni aholi huquqiy ongini, va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu masalaga murosasiz munosabatni shakllantirish davlatimizning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi siyosatining asosiy yo'nalishlaridandir. (O'RQ korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida 5-modda)

Turli usul va metodlar bilan maktab rahbari korrupsiya xavfini baholashi mumkin. Bu usullardan biri davrning modernizatsiyalashuda maktab rahbarlaridan shaffofli, adolatli shu bilan xazil-mutoyibali muhit yaratgan holda maktab ishchi xodimlarini bitta yakdil ahil jamoa sifatida birlashtira olishini ham korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashishning juda samarali usuli deb qarash mumkin. Sababi ta'lim boshqaruvidagi yakdillik ya'ni jamoaviylilik bitta umumiy maqsad - ta'limda sifat va yaxshilanish-sari odimlanishi yoki yetaklanishi muvaffaqiyatlarga yetaklaydi.

Keyingi samara beradigan usul bu ta'lim boshqaruvchilarining o'z xodimlari, o'qituvchilar, o'quvchilar va o'quvchilarning ota-onalarida tanqidiy fikrlashni yanada shakllantirish lozimligidir. Yuqorida keltirilgan ikki fikr ta'limda jamoaviy birlik va ta'lim tizimi ishtirokchilarining tanqidiy fikrlashlarini oshirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish, va uning oldi olinishi juda oson bo'lishi aytilayapti. Bunda ta'lim rahbari innovatsion g'oyalar, fikrlar orqali yondashsa muommoning kalitini yasagan xisoblanadi va oqibatda uni osongina bartaraf etadi.

Maktab rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashishidagi yana bir o'ta kuchli metodlaridan biri shuki, u "ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshirilishi" (O'RQ19-modda) ta'limda fan o'qituvchilarining yillik ish rejalarining har bir mavzusiga ushbu ofatni rejali yoritib beradigan hamda qarshi kurashish xislatlarini oshiradigan jihatlarni qo'shishdir. Xolbuki bu umumiy davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan bo'lsada, bu masalani maktab jamoasi o'z ta'lim - tarbiya rejalarida tadbir qilishi orqali muommoning yanada oldi olinar edi balkim unga qarshi kurashish osonlashar edi.

Maktab xududida korrupsiyani oldini olish chora – tadbirini maktab rahbarlari oʻzlarining xududida” Oʻzbekiston yoshlar ittifoqining nizomi”da keltirilgan qoidalarga asoslanib maktablarda “Biz-korrupsiyaga qarshimiz” shiori ostidagi klublarni tashkillashtirishi va unga masʼul shaxs va aʼzolar tayinlanishi kerak.Ushbu kichik va tor doiradagi ittifoq oldindan belgilangan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib oʻquvchilar va ularning ota-onalari,oʻqituvchilar orasidagi turli tadbirlarning tashkil etilishi shu illatga qarshi kurashish dolzarbligini oshiribgina qolmay,har bir fuqaroning burchi ekanligi asta-sekinlik bilan uʻqtirish orqali erishish mumkin.

Zamonaviy va samarali taʼlim shaklini tashkil qilishga umumiy oʻrta taʼlim maktab rahbarini undovchi yana bir usul - outsourcing tizimi asosida oʻquvchilarning bilimini baholashdir.Sabab shuki, oʻquvchilarni imtihon jarayonlarida,joriy,oraliq baholashda ayrim oʻqituvchilar suyuqli oʻquvchilariga koʻproq yon bosishadi,yoki nepotizm jarayonlari bilan duch kelishadiki.Oqibatda oʻquvchilarni baholashda ota-onalar va oʻquvchilar oʻrtasida nohaqliklar va norozichiliklar kelib chiqadi,Bu esa albattaki, korrupsiyaning bir koʻrinishi xisoblanadi.Bunday yondashuv orqali oʻqituvchi bilan munosabatga kirishuvchi shaxslar,oʻqituvchilarning oʻzlari ham korrupsion xatti-harakatlar sodir etmasliklarining oldi olinadi.Vaholanki,maktab xududida esa adolat va shaffoflik xukm suradi. Outsourcing tizim asosida katta-katta tashkilotlar sharmoma tuzadilar.Tashkilotlarining yutuq va kamchiliklarini chetdan baholashlari uchun.Taʼlim tizimida ham ushbu tizim bilan shugʻullanadigan kompaniyalarga murojaat qilish lozim.Maktab rahbarining olib borayotgan usul va uslublarining qay darajada rivoj topayotganligini albatta chetdan baholanishi lozim.Bu tizimni tadbiq etish va rivojlantirish uchun bizda yetarlicha sharoit ham , mutaxassislar ham bor.

Korrupsiyaga oid muommolarni ijtimoiy epidemic xodisa sifatida qarashimiz mumkin. Bunga sabab shuki, insonlar faoliyatiga psixologik yondashadigan boʻlsak, insonlar orasidagi har bir narsaning tez tarqalishi yaʼni bir-biridan andoza olib keng qoʻllanilishi bu xuddiki yuqumli kasalliklarning tarqalishiga oʻxshashdir. Muommolarning yechimini topish ,uni oldini olish, va bartaraf etishda har bir fuqaroga” bu- mening vazifam” deb idrok ettirish orqali rahbarlarning zimmasidagi javobgarlik ancha yengillashadi.Garchi ish tizimi ijobiy tomonda ketayotgan boʻlsada rahbarlar xodimlarini har doim sergak turishga, bemalollikdan xoli boʻlishga, ishga yanada unumdor innovatsiya olib kirishiga shart-sharoitlar yarata bilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi” Oʻzbekiston ,Toshkent-2022
2. Monica Kirya “Education sector corruption: How to assess it and ways to address it” CMIMichelsen Institute U4issue2019
3. B.A.Aliyev, A.Muxtarov”Oʻzbekistonning korrupsiyasiga qarshi kurash strategiyasi” Innovatsion rivojlanish nashriyot-2021
4. Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish” toʻgʻrisida lex.uz 2022

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy oʻrta taʼlim maktablari rahbarlarining maktab taʼlim-tarbiya jarayonida korrupsion xatti-harakatlarning oldini olish omillari va usullari haqida soʻz yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о факторах и методах профилактики коррупционного поведения руководителей общеобразовательных школ в процессе школьного образования.

SUMMARY

This article talks about the factors and methods of prevention of corrupt behavior of the leaders of general education schools in the process of school education.

ТАЛАБАЛАРНИ ИННОВАЦИОН МУҲАНДИСЛИК ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШДА КРЕАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Химматалиев Д.О.

педагогика фанлари доктори, профессор, Чирчиқ давлат педагогика университети,

Баратов Д.

ТИҚХМИИ МТУ нинг Қариш ирригация ва агротехнологиялар институти ўқитувчиси

Таянч сўзлар: талабалар, инновация, муҳандислик фаолият, креатив компетентлик, ривожлантириш, шахс, узлуксиз таълим.

Ключевые слова: студенты, инновации, инженерная деятельность, творческая компетентность, развитие, личность, непрерывное образование.

Key words: students, innovations, engineering activities, creative competence, development, personality, continuous education.

Кириш. Узлуксиз педагогик таълимнинг вазифаси шундан иборатки, у маданиятнинг кучли омилидирдан бири сифатида шахс имкониятларини тўлароқ рўёбга чиқаришга йўналтирилиши керак. Узлуксиз педагогик таълим инсон омилини фаоллаштириш, жамиятнинг маънавий-маърифий соҳасида ўқитувчининг ролини ошириш билан бевосита боғлиқдир. Айнан шу функция ўқитувчи шахсини касбий тайёрлашда мислий ва минтақавий фарқларни ҳисобга олади.

Республикамизда мутахассис кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, таълим кластери паронтида бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришга алоҳида аҳамият қаратишмоқда. Шу жумладан профессионал таълим кластери паронтида таълим йўналиши талабаларининг креатив компетентлигини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида, узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш масалалари белгилаб берилган.

Шунингдек, бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда бўлажак муҳандисларни инновацион муҳандислик фаолиятига тайёрлашда таълим кластери паронтида креатив компетентлигини ривожлантириш ҳамда бу йўналиш бўйича кадрларни тайёрлашда таълим технологияларини ишлаб чиқишга янгича ёндашиш таълим самарадорлигини оширишда юқори натижаларга эришилш учун замин ярагади.

1. Асосий матн.

Креатив педагогика илмий билиш соҳаси ва педагогиканинг фундаментал асосларидан бири сифатида олиб борилган тадқиқотларга А.Матюшкин, А.Ф.Эскулова, Т.В.Кудрявцева ва бошқаларнинг ишларини мисол келтириш мумкин [1]. Бу тўғрида Я.А.Пономарев қуйидагича фикр билдирган: “Абстракт фан сифатида креатив психологиясининг креатив педагогикаси таржибига аниқ фан сифатидаги киритилиши - ижодий фаолият тўғрисида ўзгартирувчи таҳсирли билимларни ривожлантиришнинг зарурий шартидир. Уни амалга ошириш учун эса қатор ижтимоий фанлар тузилмаси ва уларнинг ўзаро алоқаларини жиддий қайта кўриб чиқиш талаб этилади. Бу ҳолат

ижодий фаолиятнинг турли ташқиллий тузилмаларини тадқиқ қилувчи фанларнинг ижодкорлик тўғрисидаги билимларнинг асл пойдеворини ташқил қилувчи фанга, яъни билимларнинг аниқ соҳаси сифатида юзага келган креатив педагогиканинг фундаментал фанга айланиши билан боғлиқдир” [2].

Республикада ёшлар креатив компетентлигини шакллантиришнинг мавжуд ҳолатини таҳлил қилиш натижасида биз бу соҳани ривожлантиришда қуйидаги муаммолар мавжудлигини қайд қилдик:

- таълим тизимининг барча бўғинларини қамраб олувчи, креатив қобилиятларни шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган умумий дастурнинг мавжуд эмаслиги;

- назарий ва амалий машғулотлар жараёнида кенг қўлланиладиган таълим методларидан алоҳида таълим олувчилар индивидуал хусусиятларини эътиборга олмаган ҳолда, умумлаштириб фойдаланиш;

- илмий техник ижодкорлигини тарғиб қилувчи махсус нашрларнинг мавжуд эмаслиги, бошқа нашрларда эса бу соҳага алоҳида эътибор берилмаслиги;

- техник моделлаштириш тўғрақлари, ёш техниклар марказлари каби илмий-техник ижодкорлигини тарғиб қилувчи ташкилотларнинг моддий-техника базаси ночор бўлганлиги туфайли замон талабларига жавоб бера олмаслиги ва ҳоказо [3].

Ҳозирги даврда турли ахборот технологиялари, компьютерларнинг улкан имкониятларидан ёшларни ахлоқий-тарбиявий ёки илмий савияси ўсишига хизмат қиладиган турли ўйинлар, томошаларга жалб қилувчи тижорат тузилмаларининг сони ортиб бормоқда. Ўз ўрнида бундай рақобатни енгиб чиқиш учун таълим муассасаларидаги тўғрак ва лабораторияларни, ёш ижодкорлар марказларини ҳам замон талаби даражасида қайта жиҳозлаш талаб этилади. Креатив компетентликни шакллантиришнинг мавжуд ҳолати, ўсиш ва ривожланиш сурхатларини таҳлил қилиб, шу асосда зарур амалий чоралар, тадбирлар ишлаб чиқиш зарур.

Талабаларни инновацион муҳандислик фаолиятига тайёрлашда креатив компетентлигини ривожлантиришда умумтехника фанлари асосларига оид билимлар билан биргаликда креативлик кўникмаларига ҳам эга бўлиш талаб этилади. Ушбу кўникмани талаб даражасида шакллантиришда талабалар илмий техник ижодкорлиги муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унинг педагогик тизим сифатидаги хусусияти талаба илмий-ижодий қобилиятларини ривожлантиришга асосий вазифа сифатида қаралишидир. Шу сабабли, талабалар илмий техник ижодкорлиги тавсифий хислатларни тўғри ҳисобга олиш билан бирга уларда креатив қобилиятларни ривожлантиришнинг узлуксиз, босқичма-босқич амалга оширилишида педагогик жараёни янада мазмунли ва унумли ташқил қилиш имконини беради.

Талабалар креатив компетентлигини ривожлантириш учун қулай имкониятларни яратиш мақсадида ўқув дастуридаги бошқа фанлар билан биргаликда талабалар конструкторлик бюроси, техник ижодкорлик, рассомчилик, моделчилик, тасвирий санъат тўғрақлари имкониятларидан тўлароқ фойдаланиш лозим бўлади. Бу қаторда талабалар конструкторлик бюраларида олиб бориладиган ижодий ишларнинг афзаллиги янги техник ишланмалар яратиш билан биргаликда улардаги техник ечимларни амалга оширишнинг иқтисодий, техник-технологик кўрсаткичларини асослаш, гоёни халқ хўжалигига қўллашнинг амалий имкониятларини ўрганиш каби яхлит мажмуавий фаолият билан белгиланади. Талабалар конструкторлик бюраларида креатив меҳнат асосларини ўргатишдан мақсад рационализаторлик ва ихтирочилик фаолиятида намоён бўлувчи касбий фаолиятга қизиқишни тарбиялаш, эгалланётган фаолият соҳасига креатив муносабатни шакллантириш ва мустаҳкамлашдан

иборага бўлиб, бундай таълим ўз касбига бўлган қизиқишни орттириши, таълим ва ишлаб чиқариш технологияларини такомиллаштира оладиган мутахассисни тарбиялаши билан аҳамиятлидир. Талабалар конструкторлик бюрolarида талабалар ўз илмий-ижодий ишлари якунини ихтиро, рационализаторлик таклифи, реферат, курс ва диплом ишлари шаклида амалга ошириш йўллариини ўзлаштирадилар. Албатта, талабаларнинг бундай юқори кўрсаткичларга эришишлари, ихтирочилик ва рационализаторлик фаолиятида ишпирок этиши бевосита уларнинг билим савияси билан боғлиқ бўлади. Билим савияси юқори бўлган талабаларнинг малака тавсифи ортиб боради, касбни эгаллаш тезлашади, илмий техника ижодкорлигида ишпирок этиш даври эртaroқ бошланади.

Компетентлик – бу талабанинг шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга касбий фаолиятни амалга оширилиши учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ҳамда уларни касбий фаолиятда қўллай олиши билан ифодланади. Мазкур ўринда «компетентлик» тушунчасининг моҳияти ҳам тўла очилади, у қуйидаги икки кўринишда намоён бўлади: компетентлик талабаларнинг шахсий сифатлари тўплами ҳамда касбий соҳанинг таянч талаблари сифатида.

Таълим мазмунининг ўқув режадаги фанлар блоклари (барча фанлар учун), фанларaro (фанлар тўплами учун) ва предметли (маълум бир фан учун) тарзда гуруҳланганлиги боис, қуйидаги уч даражани намоён этувчи компетентликни эътироф этиб ўтамыз:

- таянч компетентлик (таълимнинг гуманитар, ижтимоий-иқтисодий мазмунига кўра);
- фанларaro компетентлик (умумкасбий тайёргарликнинг ўқув фанлари ва таълим блокларига доирлигига кўра);
- битта предмет (фан) буйича компетентлиги (махсус ўқув фани доирасида аниқ ва маълум имкониятга эгаллигига кўра).

Хулоса.Шундай қилиб, креатив компетентлик олий педагогик таълимнинг ҳар бир босқичи учун таълим блоклари ва ўқув фанлари даражасида аниқланади. Креатив компетентлик тартибини белгилашда муҳандислик таълимининг асосий максadларига мувофиқ ижтимоий ва шахсий тажрибанинг моҳияти, ижтимоий жамиятда касбий фаолиятни ташкил этиш жараёнида ҳаётий кўникмаларни эгаллашга имкон берувчи асосий турлар муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар:

1. Степанков А.П. Техническое творчество как средство подготовки стар-шекласников к труду на автоматизированной промышленности. Автореф. дисс... канд пед. наук. - М.1985. 18 с.
2. Правила составления и подачи заявок на изобретения и полезнке модели. -Т., 1993. 56 с.
3. Шарипов Ш.С. Ихтирочилик масалаларининг қўйилиши ва уларни ечиш услуги.// «Халқ таълими» журналы, 1998 йил №5 . 117-119 б.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада талабаларни инновацион муҳандислик фаолиятига тайёрлашда креатив компетентлигини ривожлантириш масалалари ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются вопросы развития творческой компетентности при подготовке студентов к инновационной инженерной деятельности.

SUMMARY

This article discusses the development of creative competence in preparing students for innovative engineering activities.